Integrating Social-Emotional Learning in EFL Classrooms: Enhancing Language Proficiency and Emotional Intelligence.....	553
<i>Meylinorova Feruza Bakhtiyor kizi</i>	
Nodavlat ta'lim tashkilotlari pedagog-tarbiyachilarining malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirish	559
<i>Muminova Nargiza Sabitdjanovna</i>	
TEACCH konsepsiyasi – autizm va kommunikativ buzilishlari bo'lgan bolalarni davolash va o'qitish dasturi	562
<i>Murodova Sarvigul Raxim qizi</i>	
Aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini shakllantirishning funksional modeli	566
<i>Norboyeva Moxigul Shavkat qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin texnologiyalari asosida bolalarning shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarini takomillashtirish	569
<i>Norqulova Ma'mura Husniddin qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfida o'qitiladigan "Tabiiy fanlar"dan mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi.....	574
<i>Qo'qonboyeva Shaxlo Rafikjonovna</i>	
The Intersection of Science and Pedagogy: The Teacher's Role in Professional Evolution	580
<i>Rahimberdiyev Rustam Abdunasirovich, Shukurova Madina</i>	
Maktabgacha katta guruhlarida STEAM texnologiyasi bilan tanishtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	583
<i>Rakhimova Laylo Hamidjon qizi</i>	
Hamshiralik ishida raqamli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi.....	586
<i>Rasulova Gulmira, Amonova Dildora, Abdurahmonov Aziz, Hakimova X. X.</i>	
Kurashchilarda muvozanat (balance) va ko'tarib uloqtirish texnikasi o'rtasidagi bog'liqlik	590
<i>Shermatov Gulom Qaxxorovich</i>	
O'qituvchi shaxsining o'zini o'zi rivojlantirishida akmeologik pozitsiyaning o'rni.....	594
<i>Xaitov Abdukosim Abdulakim o'g'li</i>	
Lego-qurilish, konstruksiyalash, robototexnika – STEAM ta'lim moduli sifatida	596
<i>Xamroyeva Sitara Samadovna</i>	
Raqamli jamiyatda o'smir yoshdagi o'quvchilarning huquqiy axborot olish madaniyatini rivojlantirish mexanizmlari	599
<i>Xayrullayev Axror Aktam o'g'li</i>	



Maktabgacha ta'limda axborot kommunikatsiya texnologiyalari yordamida ta'limiy o'yinlarni loyihalash va joriy etish	602
<i>Xikmatova Moxinur Amir qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar orqali kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish zamonaviy yechimlarini ishlab chiqish usullari	605
<i>Xolmo'minova Mohichehra Bahrom qizi</i>	
O'quvchilarning biologiyaga qiziqishini oshirishda innovatsion ta'lim metodlari	609
<i>Xudayberganova Madina Saotboy qizi, Abdiqodirov Murodxo'ja Alisher o'g'li, Nishanbayeva Arayim User qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida shug'ullanuvchi voleybolchi qizlarning musobaqa oldi jismoniy va psixologik tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi	612
<i>Xudoynazarova Sayyora Ravshanovna</i>	
Maktabgacha ta'limda milliy qadriyatlar asosida bolalarni axloqiy tarbiyalash texnologiyalari	618
<i>Yo'ldoshboyeva Gulmira Xushnudovna</i>	
Umumta'lim maktab seksiyasi uzunlikka sakrovchilarining jismoniy rivojlanganlik darajasi	621
<i>Zokir Akramov O'tkir o'g'li</i>	
Perseptiv qobiliyat: o'qituvchining o'quvchini tushunish sa'nati	625
<i>Zokirov Mirzaraxim Abdaliyevich</i>	
Ожидания и потребности родителей как основа продвижения услуг дошкольного образовательного учреждения в Республике Узбекистан	628
<i>Ким Ирина Николаевна, Аббосхонова Зухра Баходир кизи</i>	
Экспериментальная деятельность – метод развития здоровьесберегающей компетентности у детей старшего дошкольного возраста	631
<i>Ким Ирина Николаевна, Алиходжаева Райхон Шавкат кизи</i>	
Подготовка детей-билингвов к школьному обучению: интеграция цифровых и традиционных педагогических методов	634
<i>Ким Ирина Николаевна, Умарова Шоиста Рустамовна</i>	
Zamonaviy ta'lim muhitida tarbiya tizimini takomillashtirishda interaktiv metodlarning o'rni	637
<i>Islamova Dilfuza Dilshodovna, Baymurotova Madina Baxodir qizi</i>	
Methodological Support of the Process of Developing Preschoolers' Cognitive Skills Through TRIZ (TIPS) in a Technology-Enhanced Learning Environment	641
<i>Gauxar Djanpeisova, Veronika Gorbunova</i>	
Innovative Approaches to Early Mathematics Education and Development in Preschool Children	646
<i>Gauxar Djanpeisova, Shaxodat Berdiyeva</i>	
Ta'lim jarayonida intensiv texnologiyalar asosida mantiqiy tafakkurni rivojlantirish metodikasi	650
<i>Radjabova Mohigul Alisherovna</i>	
O'quv jarayonida ongli mushohada ko'nikmasini rivojlantirishda savol-javob usulidan foydalanish asoslari	653
<i>Ro'zimetova Intizor Alimovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari yozuv malakalarini shakllantirishning psixolingvistik tasnifi	656
<i>Axmataliyev Murodjon Ulug'bek o'g'li, Xojimatova Shoxsanam Erkinjon qizi</i>	
Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'qituvchi kompetensiyasiga ta'siri	659
<i>Azamatova Rayhona Bahromjon qizi</i>	
13-14 yoshli o'quvchilarda harakatli o'yinlar va zamonaviy futbol mashg'ulotlarini integratsiya qilishning pedagogik asoslari	662
<i>Babayev Anvarjon Axmedovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish (nazariya, amaliyot va natijalar) ...	666
<i>Berdiyev G'ayrat Ulaboyevich, A. N. Sadatova</i>	
Elektron portfoliolar asosida individual rivojlanishni monitoring qilishning diagnostik modeli	670
<i>Kopbayeva Baxtigul Ziyadadinovna</i>	
Pedagogik atamalarining ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati	674
<i>Islomov Nurtoy Nomoz o'g'li</i>	
Abdulla Avloniyning axloqiy-ta'limiy qarashlari	678
<i>Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyevich, Turg'unov Dostonbek Rustamjon o'g'li</i>	

Talabalarda ma'naviy-axloqiy ideallarni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	682
<i>Ziyotov Farrux Saodilla o'g'li</i>	
Nazorat qiluvchi pedagogik dasturiy vositalarni yaratishda sun'iy intellektning ahamiyati	686
<i>Ermonov Sherzod Ibrayim o'g'li</i>	
Kreativ yondashuv asosida bo'lajak muhandislarda sog'lom turmush madaniyatini rivojlantirishning muhim yo'nalishlari	690
<i>Ibragimova Aziza Avaz qizi</i>	
Oliy ta'limda dual ta'lim va malakaviy amaliyotni takomillashtirish ("musiqqa ta'limi" misolida)	694
<i>Raximov Nurillo Narzullayevich</i>	
Uzluksiz ta'lim tizimida musiqa san'atining shaxs ma'naviy-estetik tarbiyasidagi pedagogik ahamiyati	698
<i>Sattarov Alisher Alikul o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinflarda multimediali mantiqiy masalalar orqali o'quv jarayonini faollashtirish	702
<i>Jamoldinova Dildora Alijon qizi</i>	
Ta'lim markazlarida o'quvchilarning nutq kompetensiyalarini rivojlantirish metodologiyasi	706
<i>Buriyeva Xumoraxon O'lmasboy qizi</i>	
Raqamli jamiyatda o'smir yoshdagi o'quvchilarning huquqiy axborot olish madaniyatini rivojlantirish mexanizmlari	710
<i>Xayrullayev Axror Aktam o'g'li</i>	
AI-грамотность будущих педагогов: компоненты, вызовы и педагогические стратегии этической интеграции искусственного интеллекта	713
<i>Наркабилова Г. П.</i>	
Роль психолого-педагогических факторов в формировании нравственного поведения дошкольников	718
<i>Рахматходжаева Ф. М.</i>	
Внедрение инновационных технологий в дошкольно-образовательном учреждении	721
<i>Садикова Шоиста Акбаровна</i>	
Para stol tennisi sportchilarida jismoniy tayyorgarlikni oshirish samaradorligi	726
<i>X. A. Usmonova</i>	
Systematic Approach to the Issues of Educational Calculation in General Secondary Schools	729
<i>Ajiniyazova Sholpan Saparniyazovna</i>	
Роль системного профессионального развития в формировании компетентности учителей английского языка: международные тенденции и практика Узбекистана	733
<i>Жамолиддинова Нилуфар Акрамжоновна</i>	
Boshlang'ich sinf tabiiy fan darslarida funksional savodxonlikni rivojlantirish usullari	738
<i>Xujamkulova Nafisa Ruzikulovna, Saidmudova Maftuna Alisher qizi, Hafizova Oydiyoy Doniyor qizi, Xujamkulova Maqsuda Ruzikulovna</i>	
Ingliz tili darslarida Kahoot o'quv platformasidan samarali foydalanish	743
<i>Amankulov Shavkat Qudratovich</i>	
Bolalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda polisensor muloqot metodikasi	747
<i>Musratova Zilola Ulug'bekovna</i>	
Коммуникативные способности педагога – ключ к эффективному взаимодействию с учащимися	752
<i>Акрамова Л. Ю.</i>	
Искусственный интеллект в образовании: киберпедагогические стратегии развития критического мышления	756
<i>Сайфитдинов Исломбек Зоирович</i>	
Регион как фактор суицидального риска: от климата до культуры общения	761
<i>Султанова Амина Анваровна, Махсумова Зилола</i>	
Bo'lajak shifokorlarga anesteziologiya va reanimatologiya fanini o'qitishning nazariy asoslari	765
<i>Ismailov Oybek Abdurasulovich</i>	
Sun'iy intellekt (SI)ning kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi metodik ahamiyati	768
<i>Komilov Furqat Solijon o'g'li</i>	
Implementing Total Physical Response Techniques in Your Language Class	770
<i>Rakhmatova Madina Sobirovna</i>	



Voleybolda holat va harakatlanish, yuqoridan va pastdan to'p uzatish texnikasi	772
<i>Sulaymonov Jaxongir Solijonovich</i>	
Методика формирования экологической культуры учащихся в процессе спортивного туризма	775
<i>Абдурахманов Отахон Рустамович</i>	
Методы преобразования и обработки текстовых задач в преподавании математики в начальных классах.....	780
<i>Азамкулов Ахтамкул</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatida kreativ-tanqidiy fikrlash va muammoli ta'lim texnologiyalari integratsiyasining didaktik imkoniyatlari.....	787
<i>Jumayeva Muxlisa Shokir qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvning roli va ahamiyati .	793
<i>Yo'ldosheva Iqbol Bekbo'lsin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf tarbiya darslarida jadid pedagogik merosidan foydalanish usullari	796
<i>Yusupova Madinajon Mansurbek qizi</i>	
Актуальность внедрения педагогики сотрудничества в современный учебный процесс на занятиях русского языка в группах с нерусским языком обучения.....	799
<i>Заболотина Анна Анатольевна</i>	



BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARNI TAYYORLASHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING ROLI VA AHAMIYATI

Yo'ldosheva Iqbol Bekbo'lsin qizi

Urganch RANCH universiteti

Pedagogika va aniq fanlar kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta'lim jarayonida boshlang'ich ta'lim mutaxassisligi talabalarini tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvning roli va ahamiyati haqida fikr-mulohazalar yuritilgan bo'lib, unda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining axloqiy-estetik tarbiyasi hamda hayotiy kompetensiyalarni tarkib toptirishdagi imkoniyatlari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, estetika, axloq, madaniy muhit, identifikatsiyalash, professiogramma, kommunikativlik, gnostik, shaxsiy-gumanitar pedagogika, poliestetik yondashuv.

Abstract: This article discusses the role and importance of the competency-based approach in the preparation of primary education students in the higher education process. The pedagogical opportunities for enhancing moral and aesthetic upbringing are also described in the article.

Key words: competence, aesthetics, ethics, cultural environment, identification, communicativeness, gnostic, personal humanitarian pedagogy, polyesthetic approach.

Аннотация: В статье рассматриваются роль и значение компетентного подхода в подготовке будущих учителей начальных классов в учебно-воспитательном процессе высших образовательных учреждений. Кроме того, в статье описываются педагогические возможности развития нравственно-эстетических компетенций.

Ключевые слова: компетентность, эстетика, этика, культурная среда, идентификация, профиограмма, коммуникативная, гностическая, личностно-гуманитарная педагогика, полиэстетический подход.

KIRISH

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, birinchi navbatda, ta'lim sohasiga sezilarli o'zgarishlar, yangiliklar va o'qitishning innovatsion texnologiyalarini olib kirish imkoniyatlarini berdi. Bunday yangiliklarning o'quv jarayoniga kirib kelishi uning mazmungan boyitilishiga yordam bermoqda. Oliy ta'lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish o'z oldiga maqsad qilib qo'yilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'limi va tarbiyasi tizimida, jumladan, ularning axloqiy tarbiyasida pedagogning roli beqiyosdir.

Bola hayotining katta qismi aynan pedagog faoliyati jarayonida kechadi, uning xarakteri, hayotiy qarashlari, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, axloqiy-estetik tarbiyasi, bir so'z bilan aytganda, uning shaxsining fundamental sifatleri shakllanadi. Aynan shuning uchun pedagog shaxsi "ulg'ayishning ideal obrazi" hisoblanib, unga ko'ra uning yaxlitligi, uyg'unligi va, birinchi navbatda, axloqiy-estetik tarbiyasi hamda ustanovkalari bolaning shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida "uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatdan yangilash, shuningdek, professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, yoshlarni tarbiyalash va ularning bandligini ta'minlashda maktabdan tashqari ta'limning zamonaviy usullari va yo'nalishlarini joriy etish, yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish"^[1] ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilab qo'yilgan. Shaxsni har tomonlama rivojlantirishga yo'naltirilgan

ta'lim-tarbiya tizimidan nazariy-metodologik jihatdan foydalanish bugungi kunda pedagogika fanining bosh maqsadi sifatida e'tirof etiladi. Shuningdek, shaxsni har tomonlama rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya tizimini nazariy-metodologik jihatdan qurollantirish ham pedagogika fanining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarni axloqiy tarbiyalashga tayyorlashda talabalarga kompetensiyaviy yondashuvning mazmun-mohiyatini chuqur o'rganish, uning samaradorligini ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratish zarurligi haqidagi bilimlarni singdirish maqsadga muvofiqdir.

Ta'lim muassasasida axloqiy-estetik muhitni yaratishga alohida e'tibor beriladi, bu quyidagi omillarning uzviy bog'liqligi sifatida talqin etiladi:

- gumanitar va tabiiy fanlarning rang-barang vositalari, shuningdek, barcha o'quv kurslari mazmunining tarkibiy qismlari yordamida shakllanadigan axloqiy tarbiya va o'qitish muhiti;
- o'quv faoliyatining madaniy muhiti;
- ta'lim muassasasida axloqiy-estetik muhitning ahamiyati;
- madaniy ommaviy axborot vositalari orqali o'z-o'zini tarbiyalash muhiti;
- bolalar va kattalar o'rtasidagi axloqiy-estetik tarbiya muhiti;
- oilaning axloqiy muhiti;
- shaxsning o'zini o'zi rivojlantirish zonalarining axloqiy-estetik muhiti^[2].

Shu bilan birga, ta'lim sohasida (shu jumladan, pedagogik ta'limda) hozirgi vaqtda ta'limning maqsadlari, usullari, mazmuni hamda pedagogikada madaniy yondashuvni amalga oshirish zarurati o'rtasida muayyan ziddiyatlar mavjud. Ushbu qarama-qarshilikni bartaraf etish faqat shaxsning insoniyat madaniyati yaxlitligiga integratsiyalashuvi, shaxsiy madaniyatning estetik va badiiy tarkibiy qismlarining uyg'un kombinatsiyasi va sintezi rivojlanishi natijasida amalga oshiriladi. Mazkur jarayon estetik ong mexanizmi tomonidan boshqarilib, uning yadrosi – shaxsning hissiy-baholovchi faolligining yetakchi funksiyasi orqali namoyon bo'ladi. Bu esa ob'ektiv, tabiiy va insoniy ifoda hodisalarining madaniy salohiyati bilan, shuningdek, go'zal (to'liqligi bilan mukammal) tabiiy ob'ektlar va hodisalarining ob'ektiv hamda sub'ektiv timsoli orqali o'zaro ta'sir etadi.

Barkamol madaniyatga erishish, izchillik va uyg'unlik zamonaviy estetik va badiiy ta'lim, yoshga bog'liq madaniy rivojlanish hamda tarbiya konsepsiyalarining estetik va badiiy bloklarini tizimli-integral asosda qurish poydevorida keng miqyosda amalga oshirilishi mumkin^[3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

San'at eng boy hissiy, intellektual hamda majoziy-ijodiy salohiyatga ega bo'lgani sababli bilimlarni chuqurlashtirishga, shaxsning madaniyatni rivojlantirish jarayonlarini faollashtirishga yordam beradi. Boshqa tomondan, u har bir insonga o'ziga xos madaniy turni yaratish imkonini beradi, bu esa shaxsiy did va baholarga ko'ra afzal ko'riladigan muayyan san'at asarlari va qahramonlar, hamdardlik, tajriba hamda katarsis asosida hissiyotlarni uyg'otuvchi ramziy tasvirlar bilan belgilanadi. Ushbu kontekstda pedagogikaning hal qilinishi murakkab bo'lgan muammosi shaxsda axloqiy-estetik identifikatsiyani shakllantirishdan iborat bo'lib, bu o'zini muayyan etnik guruh madaniyatining tashuvchisi sifatida uning urf-odatlar va qadriyatlar bilan anglashni, shu bilan birga, umuminsoniy qadriyatlarni o'rganish, aks ettirish va ichkilashtirish asosida ko'p qirrali axloqiy yo'nalishni shakllantirishni nazarda tutadi. Shu munosabat bilan shaxsning madaniy bag'rikengligi hamda madaniy xilma-xillikka munosabati, estetik va badiiy bag'rikenglikning rivojlanishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy pedagogikaning eng muhim vazifalaridan biri bag'rikenglik prinsipi mohiyati bilan bog'liq ziddiyatlarni psixologik bag'rikenglik sifatida hal etish, shaxs tomonidan turli madaniyat hodisalarini qabul qilish va shaxsiy estetik ongni shakllantirishdan iboratdir.

Mazkur muammo o'qituvchining madaniy va estetik kompetensiyasini shakllantirish jarayonining samaradorligini o'rganishda ham muhim ahamiyatga ega, chunki u tomonidan yaratilgan ta'lim muhitining psixologik qulayligi hamda umuman kasbiy faoliyat samaradorligi uning qarashlari va e'tiqodlariga bevosita bog'liq. O'qituvchining madaniyatga, avvalo, badiiy va estetik madaniyatga kirish jarayoni estetik didni asar sifatiga, uning mazmuni va shakliga bo'lgan munosabat asosida shakllantirish orqali amalga oshirilishi zarur bo'lib, bu tarixiy jihatdan klassik qadriyatlarga yo'naltirilgan.

Estetik ongning asosiy tarkibiy qismi bo'lgan estetik ta'm estetik tajriba asosida rivojlanadi, bunda madaniyat, o'z xalqining san'ati va boshqa etnik guruhlarining eng yaxshi namunalari bilan muloqot muhim o'rin tutadi, shu bilan birga klassik va xalq madaniyati hamda folklor alohida ahamiyat kasb etadi. Pedagogik oliy ta'lim muassasalari amaliyotida bunday muloqot turli shakllarda amalga oshiriladi, ya'ni dars jarayonida muayyan millat san'atining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishdan tortib, talabalar tomonidan milliy madaniyatlar muzeyini tashkil etish hamda oliy ta'lim muassasasi bazasida har yili milliy madaniyat festivalini o'tkazishgacha bo'lgan faoliyatlarni qamrab oladi. Ushbu jarayonga talabalar, turli ta'lim muassasalari o'quvchilari, o'qituvchilar,



professor-o'qituvchilar, madaniyat va san'at arboblari hamda turli yoshdagi ishtirokchilar jalb etiladi. Shu bilan birga, o'qituvchining madaniy va estetik kompetensiyasini shakllantirishning muhim ko'rsatkichi hisoblangan badiiy-estetik bag'rikenglik mohiyatini keyingi refleksiya va muhokama bilan uyg'un holda tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'qituvchilik faoliyati "inson–inson" kasb guruhiga kiradi. Pedagog professiogrammasiga e'tibor qaratilganda, mutaxassis yuksak axloqli, kuchli irodaga ega, aniq maqsadga yo'naltirilgan, odamlarni tushuna oladigan, e'tiborli, tasodifiy vaziyatlarga tez moslasha oladigan, hissiy javobgarlikka ega bo'lishi lozimligi alohida ta'kidlanadi. M.G. Davletshinning fikricha, pedagogik professiogrammada (kasbiy tasnifnomada) bo'lajak pedagoglarga xos quyidagi sifatlar aks etishi kerak:

- shaxsiy xislatlar (bolalarni yaxshi ko'rish, ularni sevishtirish, mehnatsevarlik, jamoat ishlarida faollik va boshqalar);
- kasbga xos bilimlarga egalik (ta'lim va tarbiya jarayonining mohiyati, uning maqsad va vazifalarini tushunish, psixologiya asoslarini, yosh psixologiyasi hamda pedagogik psixologiya asoslarini bilish va boshqalar);
- o'z kasbiga xos xislatlar (hozirgi zamon pedagogikasining metodologik bilimlarini egallash, kuzatuvchanlik, diqqat-e'tiborni taqsimlay olish, pedagogik fantaziyaning rivojlanganligi, pedagogik takt va hokazolar);
- shaxsiy-pedagogik uddaburonlik (mashg'ulotlar uchun zarur materiallarni tanlay olish, o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqara olish, o'quv maqsadlarini rejalashtira olish va boshqalar);
- muloqotga kirisha olish (kommunikativlik) malakasiga egalik (bolalarni o'ziga jalb etishni bilish, bolalar va ota-onalar bilan maqsadga muvofiq pedagogik munosabatlarni tiklashni bilish, bolalar va ota-onalar bilan tashqi aloqalarni yo'lga qo'ya olish va hokazolar);
- gnostik (bilish) malakalarga egalik (bolalarning asab-psixik taraqqiyoti darajasini aniqlay olish, o'z tajribasi va pedagogik faoliyati natijalarini tanqidiy tahlil qila olish va boshqalar);
- ijodiy xislatlar (pedagogik mahoratni takomillashtirishga intilish, o'quvchilarni tarbiyalash dasturini ishlab chiqish va uni amalga oshirish qobiliyati va hokazolar) ^[4].

Bizning tadqiqotimiz kontekstida pedagogik ta'limning eng muhim vazifasi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining axloqiy-estetik kompetensiyalarini rivojlantirish nuqtai nazaridan maktab o'quvchilarining estetik va badiiy ta'limi metodologiyasi hamda texnologiyasi bilan qurollantirishdan iboratdir.

XULOSA

Shunday qilib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining axloqiy-estetik kompetensiyasini shakllantirishni ta'minlash o'quv jarayonida madaniy va aksiologik yondashuvlarning birligini amalga oshirish orqali mumkin. Aynan shu birlikni tizimni tashkil etuvchi uslubiy baza sifatida tushunish har bir talaba – estetik va ma'rifiy ta'lim-tarbiya makonining bo'lajak o'qituvchisi – uchun o'zini rivojlantirish va o'zini o'zi boshqarishga qaratilgan samarali strategiya hamda taktikasini yaratishga imkon beradi. Zamonaviy sharoitda professional yo'naltirilgan estetik ta'lim va tarbiyaning mazmuniy tarkibini aniqlash uchun poliestetik (ekspression) yondashuv g'oyalarini o'rganish ham zarur bo'lib, bugungi kunda u estetika sohasidagi eng istiqbolli yondashuvlardan biri hisoblanadi.

Oliy ta'limning estetik-tarbiyaviy jarayonida madaniy, aksiologik va ekspression yondashuvlarning o'zaro bog'liqligini qo'llash zarurligini asoslashga urinish amalga oshirildi. Biroq boshlang'ich sinf o'qituvchisining axloqiy-estetik kompetensiyasini shakllantirish metodologiyasi va metodikasiga nisbatan ushbu yondashuvlarning tizimli va dialektik birligini ta'minlash muammosi mavjud. Ushbu muammoni shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni qo'llash orqali hal etish mumkin, chunki u o'zining gumanistik mohiyatiga ko'ra yuqorida qayd etilgan yondashuvlarning eng qimmatli g'oyalarini o'zida mujassamlashtiradi hamda ularni haqiqat talablariga, ta'lim, madaniyat va san'atning zamonaviy qarashlariga muvofiq holda ta'lim amaliyotida sintez qilish va amalga oshirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. <https://lex.uz/docs/-4312785>
2. Маслоу А. Г. Дальние пределы человеческой психики / Пер. с англ. А. М. Талдыдаевой; науч. ред., вступит. статья и коммент. Н. Н. Акулиной. – СПб.: Евразия, 1997.
3. Роджерс К. К науке о личности // История зарубежной психологии. Тексты / Под ред. П. Я. Гальперина. – М.: Просвещение, 1986. – С. 232.
4. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. "Sano-standart" nashriyoti. Toshkent – 2017. – 333–334-betlar.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.